

OILA PSIXOLOGIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Mambetiyarova Venera Reyimbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi.

Sirgabaeva Nargiza

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15150812>

Annotatsiya. Ushbu maqola oilaviy hayot psixologiyasining jamiyatdagi ahamiyati va oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida tadqiqotlarga asoslangan holda oila psixologiyasi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Oila psixologiyasining asosiy tushunchalari hozirgi zamон oilalarining tipologiyasi va funksiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni jamlagan holda tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Shu bilan birgalikda maqolada oilalarning funktsional imkoniyatlariga ko'ra psixologik darajalari hamda noto'liq oilalar shakllanishining o'ziga xos ko'rinishlariga ham to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, oila psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan metodikalarga asoslangan holda psixologik yondashuvga asoslangan holda tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oila, oila psixologiyasi, psixologiya, tarbiya, ta'lim, komil inson, ma'naviy yetuklik, ruxiy holat, psixologik suhbat.

BASIC CONCEPTS OF FAMILY PSYCHOLOGY

Abstract: This article presents information about the importance of family psychology in society and the social functions of the family, based on research on the importance of family psychology. The main concepts of family psychology are the main research topics, which are devoted to the analysis of the typology and functions of modern families. At the same time, the article also touches on the psychological levels of families according to their functional capabilities and the specific manifestations of the formation of dysfunctional families. Also, the results of research on family psychology, based on the methods used in research on the psychological approach, are presented.

Keywords: Family, family psychology, psychology, upbringing, education, perfect person, spiritual maturity, mental state, psychological interview.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ СЕМЕЙНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении семейной психологии в обществе и значении семейной психологии на основе исследования социальных функций семьи. Мы провели исследование, обобщив основные понятия

семейной психологии и проанализировав типологию и функции современной семьи. При этом в статье уделяется внимание психологическим уровням семьи в зависимости от их функциональных возможностей, а также специфическим проявлениям формирования неблагополучных семей. Также представлены результаты исследования, основанного на психологическом подходе, основанном на методах исследования семейной психологии.

Ключевые слова: Семья, семейная психология, психология, воспитание, образование, совершенный человек, духовная зрелость, психическое состояние, психологическая беседа.

Kirish

Oila psixologiyasi, psixologiya sohasidagi bir yo'nalish bo'lib, oila a'zolarining o'rta sidagi aloqalarni, ularga ta'sir qilish tizimlarini, oiladagi muammolar va muammo-halokatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu soha oiladagi odamlar o'rta sidagi munosabatlarni, ota-onalar bilan farzandlar, aka-ukalar o'rta sidagi munosabatlarni o'rganib, tahlil qiladi va ularga yordam beradi. Oila psixologiyasi, oiladagi muammolar va muammo-halokatlarni tahlil qilish, oila a'zolari orasidagi munosabatlarni mustahkamlash va oila a'zolarining yanada yaxshi bo'lishiga yordam berish maqsadida qo'llaniladigan tadqiqotlardan foydalanadi. Dastlab farzand muammosiga qaratilgan diqqat, asta-sekin mijozning shaxsiy muammolariga ko'cha boshlaydi. Biroq psixolog, yaxshi anglaydigan bunday muammo, holatni, otaonalarning o'zlari yaqqol tushunadilar, deb ham bo'lmaydi. Shuning uchun mijoz psixologga murojaatining asl sababini o'zi his etishi, anglashi maqsadga muvofiqdir. Bu sohada, oila a'zolari o'rta sidagi kommunikatsiya, oiladagi farovonlik, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, muammo va muammolar yechish, tarbiya va o'qitish usullari kabi mavzular o'rganiladi. Oila psixologiyasi oilada farzand tarbiyasida, yosh avlodning bilimli, ma'naviyatli va komil insonlar bo'lib yetishishida, muammoli holatlarni oldini olishga yordam beradi. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funksiyasi tarbiyalash funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-onas san'atkori, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi.

Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo`ysunish, yetakchilik kabi o`ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsiomtiva va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-onuva farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro`zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo`lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi.

Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o`zaro qovushishlari, birqalikda yaxshi niyat bilan oila – ro`zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Ijtimoiy psixologiya oila psixologiyasini o'rganganda, unga jamiyatning bir bo`g'ini, kichik ijtimoiy guruh sifatida qaraydi. Shu sababli ham konkret izlanishlarda uning paydo bo`lishi, mavjudligiga asos bo`luvchi omillarni va tugashi bilan bog'liq holatlarga e'tiborni qaratadi. Zero, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsiyal hissiyotlarga asoslanganga o`xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko`ngil qo`yishi, tanlashi, birqalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to`la bo`ysunadi. Ayrim olimlar, masalan, frantsuz tadqiqotchisi Le Ple o`z vaqtida oilada sof psixologik qonuniyatlardan tashqari, ro`zg'orni boshqarish, farzandlar soni va tarkibiga ko`ra oila byudjetining o`zgarishlarini inobatga olib, uni ijtimoiy iqtisodiy qonuniyatlar maskani deb atashni ham taklif etgan. Uning fikricha, oilaviy o`zaro munosabatlar nihoyatda o`zgaruvchan bo`lib, ular zamon va davr ta'sirida, oila a'zolarining soni va sifatiga bog'liq tarzda tinimsiz sifat o`zgarishlarini boshdan kechirishini, hattoki, er-xotin o`rtasidagi odatiy munosabatlar yillar tazyiqi, jamiyat normalari, sanoatning rivoji yoki ma'naviyatning tanazzuli ta'siri ostida boshqacha tus olishi mumkinligini, ota-onuva – bola munosabatlari tizimi, bunda hattoki, otaning avtoriteti ham o`zgarib borishi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi psixologik masofa yillar o`tishi munosabati bilan uzoqlashib ketishini ta'kidlaydi. Oila psixologiyasining muhim mavzularidan biri oila tuzilishi va o'zaro aloqalaridir. Bu sohada, oila a'zolari o'rtasidagi aloqalar, ota-onalar va farzandlar, erkak va ayollar o'rtasidagi aloqalar, ukalar o'rtasidagi munosabatlar, oila a'zolarining o'zaro qo'llab-quvvatlash jarayoni va o'zaro yordam kabi tushunchalar o'rganiladi.

Bolaning kelajagi, uning shaxs bo`lib kamol topishi ko`p jihatdan ota-onas oilasi, u to`g'rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog'liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o`rganilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o`z oilasi to`g'risidagi tasavvurlari ko`pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-onas o`z farzandi uchun qo`lidan kelgan barcha choralarini ko`rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo`lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo`ladilar. Bola tajribasining asoslaridan biri undagi ota-onas oilasi ta`sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya`ni, o`zaro ishonch, o`zini-o`zi baholash, oila psixologiyasining asosiy kontseptsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta`sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o`zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik – xotirjamlikda, o`zaro hamjihatlikda yashashga o`rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o`zaro muomala holatlarida o`zini qanday tutishga o`rganadi, hayotning ma`nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta`sirida ro`y beradi. Er-xotin munosabatlari avvalo adaptatsiya, ya`ni bir-biriga asta-sekin ko`nikib, moslashib borish jarayonidan boshlanadi, zero, ularning har biri yangi muhitga, yangi ro`zg'orga o`z oilasida orttirgan shaxsiy tajribasi, oila to`g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan kirib keladi. Natijada ota-onasi oilasida olgan tajribaning bir qismidan voz kechgani holda, yangi munosabatlar uchun yangi fazilatlarni o`zida tarbiyalay boshlaydi. Oila a`zolari o`rtasida sodir bo`ladigan murakkab va serqirrali o`zaro munosabatlar ko`plab olimlar, shu jumladan, o`zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, G'.SHoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan tadqiqotlarga asoslangan holda o`rganilgan. Ularda ko`proq o`zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Lekin oila institutini oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug`chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a`zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo`lishini o`rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a`zolari o`rtasidagi munosabatlarning -mehribonlik, g'amxo'rlik, hamandardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o`ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va o`zaro ta`sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-onas va farzandlar, yaqin qarindosh urug`lar o`rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro`zgor yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo`lgan psixologik jarayonlarning kechishini

tadqiq etadi, o'rganadi. Oila psixologiyasi ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatlarning psixologik tabiatiga, kelib chiqishi va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik. Shu nuqtai nazardan oilaviy psixologik munosabatlar fenomenologiyasi ijtimoiy-psixologik izlanishlar ob'ekti sifatida o'rganilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz. Oiladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar va ularning kelib chiqish sabablari qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o'rganganlardan biri rus olimi L.Ya. Gozman (1987-yil) hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarga asoslangan holda oila psixologiyasini o'rganishda kelib chiquvchi muammolarni bartaraf etish bo'yicha yosh oilalarga doimiy konsultatsiya berib borish va har oyda psixologik suhbat o'tkazish orqali muammolarni bartaraf etib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Psixodiagnostika yordamida aniqlangan xususiyatlar, aksariyat hollarda ularning asosan salbiy xarakterga ega bo'lgan jihatlari psixologik tuzatish ishlari orqali bartaraf etilishi lozim.

Unda o'rganilayotgan shaxsning ma'lum bir faoliyatlarni maqsadga muvofiq amalga oshirishiga halaqit qilishi mumkin bo'lgan ayrim sifatlari ko'rsatiladi, ularni bartaraf etish yuzasidan psixologik maslahatlar beriladi. Psixologik maslahatlar berishda boshqa bir qancha ilmiy manbalardan olingan ma'lumotlardan, psixologning, mutasaddi xodimning hayotiy tajribasi, kasbiy mahorati va boshqa shu kabi manbalardan foydalanish ham mumkin, lekin bu o'rinda hal qiluvchi manba bo'lib, shu maslahat berilayotgan odam, er, xotin, qaynona, kelin, farzand, yosh xodim va boshqalarning o'zidan, psixodiagnostika yordamida olingan ma'lumotlar asos bo'lishi (psixologik suhbat qilishi) kerak.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila psixologiyasini o'rganish bo'yicha ilg'or tadqiqotlarga asoslangan holda, oilada, farzand tarbiyasida, ta'limida kelib chiquvchi muammolarni bartaraf etish bu kelejak avlodning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk komil insonlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Oila farovonligi, oila totuvligi, farzand tarbiyasi eng avvalo jamiyatimizning bir bo'lagi desak yanglishmaymiz. Oilaviy holatidan kelib chiqgan holda psixologik suhbatlarni amalga oshirish orqali oilaviy psixologlar kelib chiqgan muammolarni bartaraf etib, oila a'zolarining ruxiy holatini, ma'naviy holatini va aqliy rivojlanishini yanada mustahkamlab beradi.

REFERENCES

1. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Dáwletbaeva Gúmisay. "PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA VA OILA INTEGRATSIYASI." TADQIQOTLAR. UZ 51 (2024): 34-37.
2. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Jumabayeva Marupa. "OTA-ONA VA FARZANDLAR MUNOSABATINING XUSUSIYATLARI." TADQIQOTLAR. UZ 51 (2024): 20-23.
3. Ilyasova, Gulnaz, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "OILA SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA." Modern Science and Research 3.12 (2024): 601-604.
4. Jumanazarova, Guljajna, and Venera Mambetyarova. "ATA-ANALAR HÁM BALALAR ARASINDAĞI MÚNASEBETLERDIŃ QÁSIYETLERİ." Modern Science and Research 3.10 (2024): 549-551.
5. Aymuratova, Zliyxa, and Venera Mambetiyarova. "OTA ONALARNING FARZAND TARBIYASIGA E'TIBORI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 392-394.
6. Rustamovnaning, Muratbaeva Dildora, and Mambetyarova Venera. "OILA TERAPIYASI." PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI 2.10 (2024): 39-41.
7. Usmanova, Aysholpan, and Venera Mambetyarova. "ATA-ANA HÁM PERZENT MÚNASIBETLERİ HÁM TARBIYA USILLARI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 469-471.
8. Daribaev, Atabay, and Venera Mambetiyarova. "O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARING TARBIYASIDA KO'PGINA OTA-ONALARNING TAJRIBALARINING YETISHMOVCHILIGI." Modern Science and Research 4.1 (2025): 118-120.
9. Tólepoval, Ziyada, Ayadana Ibragimova, and Venera Mambetyarova. "ATA-ANA HÁM PERZENTLER MÚNASIBETLERINIŃ ÓZGESHELIKLERİ." Modern Science and Research 3.12 (2024): 313-316.
10. Djumaniyozova, Dilfuza, and Venera Mámbetyarova. "ATA-ANA HÁM PERZENTLER MÚNÁSEBETLERINIŃ ÓZGESHELIKLERİ." CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. Vol. 1. No. 11. 2024.

11. Muratbaevna, Muratbaeva Shaxnoza, and Mambetiyarova Venera. "PSİKOLOGİK MUOAMMOLAR." PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS 4.40 (2024): 48-50.
12. Reyimbayevna, Mambetyarova Venera. "ATA-ANALAR HÁM BALALAR ARASINDAĞI MÚNASEBETLERDÍN QÁSIYETLERİ." (2024).
13. Turemuratova, Aziza, Rita Kurbanova, and Barno Saidboeva. "EDUCATIONAL TRADITIONS IN SHAPING THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN FOLK PEDAGOGY." Modern Science and Research 2.10 (2023): 318-322.
14. Kurbanova, R. J., and B. E. Saidboeva. "MAKTAB VA OILADA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING AKSIOLOGIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH." Inter education & global study 9 (2024): 114-121.
15. Jarasovna, Kurbanova Rita. "The Role of National Values in Shaping the Aesthetic Worldview of Schoolchildren." International Journal of Pedagogics 5.03 (2025): 55-58.
16. Go'zal, D., and J. Gulsevar. "OILADA O'SMIRLAR TARBIYASI." THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH 2.19 (2023): 41-44.
17. Dauletova, G. M. "O'SMIRLIK YOSHDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR." ХАБАРШЫСЫ 3 (2022): 81.
18. Begibaevna, Turemuratova Aziza. "EFFECTIVE EDUCATIONAL INDICATORS OF MULTI-VECTOR APPROACHES IN FORMING COLLABORATIVE SKILLS OF STUDENTS BASED ON PEDAGOGICAL METHODS OF INNOVATIVE EDUCATION." International Journal of Pedagogics 4.11 (2024): 153-157.